



XIVA XONLIGIDA HARBIY ISH TARIXIDAN

Gulboev Nizomiddin Normamatovich

O'zbekiston Fanlar kademiysi Tarix instituti "O'rta asrlar tarixi" bo'limi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligi harbiy qurolli kuchlaridagi turli mansab va unvon egalarining vazifalari, harbiy ishdagi turli urug'larning ishtiroki, qurol-aslahalari, harbiylarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyasi, jang olib borish san'ati, qo'shin tarkibi, harbiy xizmatga chaqirish, qo'shin miqdoridagi o'zgarishlar, mudofaa masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva, harbiy mansab va unvon egalari, qilich, o'q-yoy, qo'shin miqdori, burong'or, juvong'or, ijtimoiy himoya, jang san'ati, mudofaa.

ИЗ ИСТОРИИ ВОЕННОГО ДЕЛА В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ

Гулбоев Низомиддин Нормаматович

Академия наук Узбекистана, Институт истории, отдел «История средних веков», старший научный сотрудник

Аннотация. В данной статье рассмотрены обязанности обладателей различных воинских должностей и званий в Хивинском ханстве, в том числе участие различных родов в военных операциях, вооружение войск, материальное обеспечение и социальная защита воинов, боевое искусство, состав войск, организация призыва на военную службу, изменения численности войск, вопросы обороны.

Ключевые слова: Хива, обладатели воинских должностей и званий, меч, лук и стрелы, численность войск, бурангар, джувангар, социальная защита, боевое искусство, оборона.

FROM THE HISTORY OF MILITARY WORK IN KHIVA KHANATE

Gulboev Nizomiddin Normamatovich

Uzbekistan Academy of Sciences, Institute of History, Department of «History of the Middle Ages», senior researcher

Abstract. In the article are analyzed various duties of military officials and titles in the Khiva khanate, in part the participation of tribes in military operations, army weapons, social welfare and social protection of soldiers, martial arts, army composition, changes in troop numbers, defense issues.

Key words: Khiva, holders of military positions and ranks, sword, bow and arrows, number of troops, burangar, juvangar, social protection, martial art, defense.

Kirish. XVI-XIX asrlarda Turkiston xonliklaridagi harbiy qurolli kuchlar, ularning tuzilmalari bir-biriga o'xshash edi. Xususan, Xiva xonligida XVI asrdan Arabshohiylardan bo'lgan sulola hukmronlik qilgan bo'lsa, XVIII asr ikkinchi yarmidan hokimiyat tepasiga chingiziylar o'rniga yangi sulola vakillari Qo'ng'irotlar keldi. Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan Muhammad Amin inoq (1770–1790) va Avaz inoqlar (1790–1804) davrida taxtga soxta xonlarni qo'yib davlatni boshqarib keldi. 1804 yil taxtga kelgan Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan Eltuzar inoq (1804–1806) "xon"lik titulini olib o'zini "xon" deb e'lon qildi va shundan boshlab 1920 yilgacha Xivada hukmronlik qilgan Qo'ng'irotlar sulolasi o'zlarini "xon" deb atay boshladidi. Ushbu sulola davrida davlatning xavfsizligini ta'minlash, tashqi siyosiy kuchlardan himoyalanish, mamlakatda tartib-intizomni saqlash maqsadida harbiy kuchlar rivojlantirilib borildi. Davlat boshqaruvida markazlashtirilib, ushbu sulola hukmronlik qilgan davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada yuz bergen muhim o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bu vaqtga kelib harbiy sohaga ham jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Xonlik qo'shini yangi, zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlandi, qo'shin tuzilmalari kuchaytirildi. Markaziy hukumat tomonidan harbiy sohada islohotlar o'tkazilib, ko'plab urug' va qabilalar o'rtasidagi kurashlarga chek qo'yildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xiva xonligi harbiy tarixini yoritishda mahalliy manbalar, bu erga kelgan sayyoohlар, harbiylar, elchilar, savdogarlarning kundaliklari, xotiralari, hisobotlari va arxiv hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu manba va hujjatlarda xonlik harbiy taktik-strategiyasi, boshqaruvi, harbiy bo'linmalar, qurol-yarog'lari, navkarlarga berilgan maosh va er-suвлar, harbiy mansab egalari to'g'risida

muhim ma'lumotlar berilgan. Bunda asosan Abulg'ozixonning "Shajarayi turk", Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", Ogahiyning "Riyoz ud-davla", "Jome al-voqeoti sultoniy", "Zubdatu-t-tavorix", "Gulshani davlat", "Shohidi ul-iqbol", Muhammad Yusuf Bayoniying "Shajarayi Xorazmshohiy"^[1] asarlari, O'zbekiston Milliy arxivida "Xiva xonlari kanselyariyasi" nomi istida saqlanayotgan I-125 jamg'arma hujjatlari muhimdir. Bundan tashqari Xivaga kelgan chet ellik I. Blankennagel, N. Muravev, G. Danilevskiy, A. Vamberi, Mak Gaxan, Ismoil Mirpanjiy^[2] ning kundalik xotiralari va hisobotlarida xonlik harbiy holati, ta'minoti, qo'shin boshqaruvi, taktik-strategik usullari, harbiy mansab egalari faoliyati, mudofaa qobiliyati to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Mazkur maqola mavzusini o'rghanishda birinchi navbatda birlamchi turli manbalar, sayohatnomalar, arxiv hujjatlarini tahlil qilish, qiyosiy solishtirish usullaridan foydalanilgan. Ayrim adabiyotlarda Xiva xonligida muntazam qo'shin mavjud bo'lmagan yoki harbiy qo'shin qolqo bo'lgan degan g'oyaning asossizligi ochib berilgan. Harbiy sohaga oid ma'lumotlarni o'rghanishda xolislik, tarixiylik, davriylik kabi tamoyillarga amal qilib, Xiva xonligidagi harbiy sohaga oid mu'lumotlarni tadqiq qilishga e'tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Xiva xonligi qo'shini muntazam va nomuntazam qo'shindan iborat bo'lgan. Qo'shining asosan "otliq" va "piyoda" qo'shin guruhidan iborat bo'lib, asosiy zarbdor kuch, bu "otliq" qo'shin bo'lgan. Navkarlar o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq va boshqalardan tashkil topgan. Ular turli urug'larga bo'lingan bo'lib, qo'ng'iroq, yovmut, taka, jamshidiy, yimroli, chovdur, go'khan, saqar, qorachaqa, orolqo'ng'iroq, ag'orli, ali-eli, mang'it, qipchoq, qoradoshli, uyg'ur, nayman, tobin va boshqalardan tashkil topgan. Qo'shin bevosita xonga bo'ysungan hamda harbiy harakatlar vaqtida ularga xon tomonidan sarkardalar tayinlanib ular o'z urug'larini boshqargan. Bu to'g'risida Muhammad Yusuf Bayoni Xiva xoni Muhammad Aminxonning (1846-1855) safarga chiqishini tasvirlar ekan, xon oldidan avval Pahlavon Mahmud, undan keyin Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I, Olloqulxon, Rahimqulxon tug'ini ko'tarib, so'ngra qo'ng'iroq, qoraqalpoq, yovmut, yimroli, go'khan, jamshidiy kabi, jami 25 ta boshqa urug'larning bayroqlarini ko'tarib o'tganliklarini yozadi^[3].

Xonlikda harbiy mansab egalari davlat chegaralarini mustahkamlash, qo'shni davlatlar bilan tashqi aloqalarni olib borish, faol ichki va tashqi siyosat yuritishda muayyan harbiy kuchlarga tayangan. Buxoro va Qo'qon xonliklarida kuzatilgani kabi Xivada ham qo'shinni boshqarishda muayyan ierarxiyaga bo'ysunilgan. Xonlikda harbiy kuchlarni boshqaruvning o'ziga xos boshqaruv tizimi mavjud bo'lib, bir qator harbiy mansab va unvonlar, xususan, sarkarda, sipohsolor, lashkarboshi, yasovulboshi, mingboshi, yuzboshi, dahboshi (ellikboshi), o'nboshi, bahodirlar bu tizimning turli pog'onalarini egallaganlar. Dastlab, o'nboshi, ellikboshi, janglarda mahorati oshganlarga yuzboshi, mingboshi hamda boshqa mansablar va bahodir unvonlari berilgan.

Xonlikda rasman harbiy kuchlar boshlig'i oliy hukmdorning o'zi sanalgan. Biroq turli tarixiy shart-sharoitlar taqozo etganida qo'shinni boshqarish ishi – sarkardalik turli mansab egalari zimmasiga yuklatilgan holatlar tarixiy manbalarda qayd etiladi. Bunda ularning xonga sadoqati, tajribasi va urug'lar o'rtasidagi obro'yи hisobga olingan. Qo'shbegi, mehtar, inoq, otaliq, biy, beklarbegi, parvonachi, mirob kabi mansab egalarining ham o'z navkarları bo'lib, ular xon tomonidan ma'lum bir guruhg'a, ayrim hollarda katta qo'shinga sarkardalikka tayinlangan^[4]. Muhammad Aminxon davrida (1846–1855) yuqori harbiy unvon amir ul-umarolik mansabi joriy etilgan bo'lib^[5], bungacha bu unvon Muhammad Amin inoq (1762-1790) davrida berilgan edi.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab avval rioya etib kelingan udumlarda, o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Yasovulboshi" mansabi egasi harbiy harakatlar vaqtida xon tomonidan qo'shin boshlig'i vazifasiga tayinlanish bilan birga mamlakat ichida ichki nazoratni ham ta'minlagan. XIX asr birinchi yarmida bu mansab egasi turkman urug'lariga sarkardalikka tayinlangan. Xususan, yovmut urug'iga Rahmatulla yasovulboshi va Qorachuqa urug'iga Mahmud yasovulboshi sarkarda bo'lgan^[3].

XIX asr oxirlarida yasovulboshi Xivada ikki kishidan iborat bo'lib, biri qo'shin boshlig'i, ikkinchisi rasmiy arizalarni ko'rish ishlariga ma'sul bo'lgan^[5]. Yasovulboshining yordamchilari yasovullar deyilib, ular viloyatlarda turli sun'iy sug'orish kanallarini qazish va ta'mir etish ishlarini ham nazorat qilgan^[7]. Yasovullar xonga kelgan arznomalarni ham tekshirganlar. Shuningdek, XX asr boshlarida tinchlik vaqtida saroyda xonni qo'riqlash, ichki nazorat (politsiya), qamoqxona ishlariga boshchilik qilgan, maxfiy farmonlar ham uning qo'lida turgan^[8].

Mingboshi mansabiga tayinlangan shaxs qo'shindagi mingta va undan ko'proq navkarga boshliq

bo‘lgan[9]. Bundan keyingi, to‘pchiboshi-artilleriya boshlig‘i, yuzboshi – yuzta, ellikboshi (panjohboshi) [10] – ellikta, o‘n boshi – o‘nta navkarga boshliq bo‘lgan[9]. XVI-XIX asrlarda bu harbiy lavozim egalari uchta xonlikda ham bir xil vazifani bajargan bo‘lib, ularning vazifalari o‘zgarmagan.

Davlat chegarasi xavfsizligini ta’minlash, “qorovulbegi”ga, ya’ni chegara xizmati boshlig‘iga yuklatilgan. Qorovulbegini ham qo‘lida o‘z navkarlari bo‘lib, ular chegaradan o‘tayotgan har bir kishini tekshirib mamlakatga kirgizganlar. Bundan tashqari “bojbon”lar ham bo‘lib, ular mamlakat hududiga kirib kelayotgan savdogarlardan va boshqalardan turli xil bojlarni undirganlar.

Shaharda harbiylar mamlakatdagi ichki tartibni saqlashda ham muhim rol o‘ynaganlar. Xususan, turli markazlarda ichki tartibni saqlash ishlari bilan mirshablar shug‘ullangan. XX asr boshida Xivaning darvozalarini jami 50 nafar mirshab va 9 nafar yuzboshi qo‘riqlagan. Ular poytaxt shaharni qo‘riqlash bilan birga xon qarorgohi Arkni ham qo‘riqlab turganlar.

Harbiy yurishlarda xonga hamroh bo‘luvchi oliy sudya boshqa xonliklardi kabi an’anaviy “qozi urdu” (“qozi o‘rda”) yoki “qozi askar”[11] deb atalib, ular harbiy jinoyatlar bo‘yicha, shariat qonun-qoidalari asosida hukm chiqorganlar, shuningdek, ayrim hollarda oddiy fuqarolarning ishlarni ham ko‘rganlar.

Qal’alar himoyasida uning mustahkamligiga javobgar shaxs “kutvol” yoki “katovul” hisoblangan[11]. Xon oldiga arzga kelganlarning arizalarini “dodhoh” ko‘rib, xonga etkazgan hamda javobini arzchiga ma’lum qilgan. Xiva xonligiga dodxoh mansabi Buxorodan kelgan[11]. Dodhoh harbiy harakatlarda ham ishtirot etgan. Saroy darvozalarini qo‘riqlashga eshikog‘asi mas’ul bo‘lib, u ham harbiy harakatlarda ishtirot etgan[12].

Shuningdek, dasturxonchi, oshmehtar, shig‘ovulni ham o‘z navkarlari borligi arxiv hujjatlarida keltirib o‘tiladi[13].

Xonlik qo‘sishida musiqachilar bo‘linmalari ham mavjud bo‘lib, harbiylarni yurish vaqtida ruhlantirish hamda ko‘rikdan o‘tkazishda, bevosita qo‘sindagi nog‘orachi va harbiy musiqachilar guruhi muhim o‘rin egallagan. Bular karnaychi (shifurchi), surnaychi, nog‘orachi, tablchilar bo‘lib, ular xonning saroydan chiqishini xalqqa ma’lum qilish bilan birga qo‘sish harakatga kirganda yoki jang boshlanganda harbiylarni ruhiy, ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaganlar.

Xiva xonligida balog‘at yoshiga etgan va o‘z hohishi bilan murojaat etgan har bir yigit harbiy xizmatga olingan. Yigitlar o‘zlarining harbiy xizmatga chaqiriluvini, asosan, tavochilar, ya’ni jarchilar tomonidan, harbiy harakat to‘g‘risidagi xon farmonining o‘qib eshittirilishi, bozorlar va masjidlardagi e’lonlar orqali bilib olganlar. Masjidlar orqali harbiy xizmatga yaroqli kishilarning ro‘yxati tuzilib, ular harbiy harakatlarga jalb etilgan. Nogiron yoki xizmatga yaroqsiz kishilar harbiy xizmatga olinmagan. Harbiy xizmatni o‘tash muddati ko‘rsatilmagan bo‘lib, qo‘sish ichida yoshi ulug‘ kishilarni ham uchratish mumkin bo‘lgan. Ular ko‘p janglarda tajriba orttirib yosh navkarlarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini o‘rgatib borganlar.

Harbiy xizmatga olinganlarning maxsus ro‘yxati tuzilib, har bir askarning nomi va unga berilgan ot-ulovi maxsus daftarlarda, harbiy amaldorlar, xon devoni tomonidan yoki masjidlarda yozib borilgan. Shuningdek, ushbu ro‘yxatlarda harbiy xizmatga olinganlar qaysi viloyat, masjiddan olinganligi va kimning farzandi ekanligi hamda oilada katta yoki kichikligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham qayd etilgan.

Navkarlar yurish vaqtida ko‘p hollarda o‘zlarini o‘zlarini ta’minlagan, biroq yurishdan keyin ushbu xarajatlar odatda xon tomonidan ma’lum bir to‘lov evaziga to‘lab berilgan. Harbiylar o‘zlariga kerakli narsalarni arzon va qisqa vaqt ichida sotib olishlari uchun, harbiy qarorgoh atrofida bozorlar tashkil qilingan bo‘lib, navkarlar narsalarni shu joydan sotib olganlar. Bu narsa dehqon va savdogarlarga ham, harbiylarga ham qulay bo‘lgan[15].

Xonlik harbiy qo‘sini tuzilishi jihatdan o‘rta asr an’analarini saqlab qolgan bo‘lib, arabchada o‘ng qanot “maymana” va chap qanot “maysara”[16] deyilgan bo‘lsa, bu atama turk-mo‘g‘ulchada o‘ng qanot “burong‘or” va chap qanot “juvong‘or” deb ham atalgan. Harbiy harakat vaqtida asosiy kuchlarning oldida boruvchi harbiy bo‘linma “manglay” yoki “hiroval”[17] deyilgan. Ulardan oldin qorovullik bo‘linmasi yuborilgan va qo‘sish orqasidan yuruvchi bo‘linma “soqa” harakatlangan.

Aholidan to‘plangan qo‘sish turiga “qoracherik”(ko‘ngilli qo‘sish)[18] deyilgan. Bundan tashqari “bahodirlar dastasi” deb atalgan guruh ham majud bo‘lib, ular jang vaqtida tez va shijoat bilan harakat qilganlar. Janglarda mardlik ko‘rsatgan sarkardaga tug‘ bilan birga nog‘ora ham berilgan. Maxfiy xizmat xodimlari josus, munhiy, ayyor, axborotchi yoki buhri deyilgan.

Xonlik qo‘sini safida farroshchi, kemachi va qayiqchi navkarlar, mahramlar, miltiqsozlar, doruchilar,

yunuvchi (duradgor) va temirchi ustalar, piyoda to‘pchilar, kulollar, piyoda sarbozlar guruhi tunqator (tungqator), chodirchi navkarlar ham bo‘lgan.

Bundan tashqari lashkar yig‘ish uchun xon tomonidan “navkar talabi” bilan turli hududlarga farmon ham yuborilgan bo‘lib, ular belgilangan muddat ichida, har kun guruh-guruh bo‘lib yoki o‘zları kelib qo‘silganlar. Axal, Tajan va Marvda o‘tirgan taka, solur va sariq urug‘laridan to‘plangan navkarlarning guruh bo‘lib kelganligi manbalarda qayd etiladi[19]. Xonlikga harbiy xizmatga olingan turkmanlar harbiy yurishlar uchun 1 ta oiladan 1 ta otliq navkar olingan va hukumat ularga harbiy xizmati uchun har bir navkar uchun 10 tanobdan er bergen[20].

Muhammad Rahimxon I (1806–1825) davrida Oliy Kengash ta’sis etilgan bo‘lib, unda harbiy yurishlar, muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar ko‘rib chiqilgan. Ushbu Kengash haftaning juma kunida yig‘ilish o‘tkazganligini N.N.Muravev o‘z asarida yozib qoldiradi[20].

XVI – XIX asrlarda ham Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi kabi Xivada ham harbiylar primitiv qurollar bilan birga yangi zamonaviy qurol turlaridan ham foydalanib kelganlar. Ularni sovuq va o‘t-ochar qurol turlariga ajratish mumkin. Sovuq qurol turlariga qilich, xanjar, nayza, o‘q-yoy, oybolta, sovut, dubulg‘a kirgan. O‘t-ochar qurol turlariga esa to‘fang, berdanka (miltiq), to‘p va to‘pponcha (pistolet)lar kirgan. Xiva xonligida ham bu qurol turlari deyarli o‘zgarmay, XX asr boshlarida ham jangdagi asosiy qurol turlaridan biri bo‘lib qolaverdi.

Xivada jangdagi asosiy qurol turi qilich, nayza, xanjar, o‘q-yoy, oybolta va boshqalar hisoblangan. Harbiylarning qilichi egilgansimon va ko‘p hollarda juda yaxshi Xuroson temiridan tayyorlangan. Sovuq qurol turlaridan bo‘lgan nayza esa hamma joyda ham ishlatilmagan. Uning dastasi ingichka qamishdan, yarim sajen uzunlikda yasalgan. Nayza eng yaxshi temirdan tayyorlangan. Jangda uzoq masofadan otish uchun kamon va o‘q-yoydan ham foydalanilgan. Oyboltaga o‘xshash qurol yoki xanjarning bir turi “chekan” deyilib, jangda sovut kiygan jangchini engish uchun ishlatganlar.

XIX asrda xonlikdagi Yangi Urganch va Chimboy asosiy temirchilik markazlari edi. Ularda turli metall buyumlar bilan bir qatorda, harbiy qurol-aslahalar ham tayyorlangan. Shuningdek, Hazorasp bekligida miltiq va Yangi Urganch yaqinidagi Begovot qishlog‘ida qilich tayyorlangan. Miltiqdan XVI-XVIII asrlarda ham foydalanganlar, biroq ularning soni kam bo‘lgan.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib esa Xivada turli-tuman zamonaviy qurol-yarog‘ turlari ham ishlatila boshlandi. Ruslar bilan Xivaga kelgan amerikalik jurnalist Mak-Gaxan Xivadagi qurol-yarog‘lar to‘g‘risida yozib, qilich, xanjar, miltiq hamda turli baho va o‘lchamdagisi to‘pponchalarni eslatib o‘tadi[21].

Yana bir qurol turi “shamxol” deyilib, bu qurol elkaga qo‘yib, uzoqqa otiladigan og‘ir qurol bo‘lib, ko‘proq merganlar foydalangan[22]. Qo‘sinda maxsus shamxolchilar bo‘limasi ham bo‘lgan. Xiva devonbegisi Matmurot qoldirgan ma’lumotga ko‘ra, shamxol Xivada ishlatilgan qurol bo‘lib, undan juda uzoqqa otishda foydalanilgan[23].

Xonlikda to‘pchilar bo‘linmasi bo‘lib, u jang vaqtida asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. To‘pxona xon qarorgohi atrofida bo‘lib, agar harbiy harakat vaqtida qarorgoh ko‘chsa, to‘pxona ham ko‘chgan. Bayoniy o‘zining “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida Olloqulixon (1825-1843) tomonidan qo‘sish to‘pxonasi Yusuf mehtar deganga topshirilgani va to‘pxona qo‘sindan oldinda borib harbiy qarorgohda joylashib olinishligi to‘g‘risida buyruq berganligini ta‘kidlab o‘tadi. Ushbu to‘plardan foydalishda qullar ham qatnashgan bo‘lib, ular “to‘pchi dug‘ma”lar deyilgan.

Tarixiy manbalarda XVI-XVII asrlarda ham to‘plardan harbiy harakatlarda foydalanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.

To‘plar katta va kichik to‘plarga bo‘lingan. Xonlikdagi kichik to‘plar, ya’ni “falkonet”lar ham mayjud bo‘lgan[23]. To‘plarning soni har-xil bo‘lib, ayrim ma’lumotlarda poytaxt shahar Xivaning Ichang-qal’asi uchta darvozasida 20 ta to‘p va to‘p o‘rnatilgan maxsus moslama[24] bo‘lgan bo‘lsa, boshqa bir ma’lumotda, 1870 yilda xonlikda 60 ta to‘p mayjud bo‘lgan deyiladi.

To‘p va miltiqlarning o‘qini tayyorlashga ishlataladigan dori (porox)ni xivaliklar o‘zları tayyorlagan va uni bozorda sotganlar, lekin uni tayyorlash uchun oltingugurtni Buxorodan sotib olganlar[26]. Porox asosan, Ilali, Ko‘hna Urganch va Oqtepa bozorlarida sotilgan. Asosiy xaridor yaqin o‘rtada yashovchi turkmanlar bo‘lib, bunday poroxning bir pud narxi 6 rubldan 12 rublgacha bo‘lgan[21].

Xiva xonligida Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi kabi harbiylarga e’tibor ancha yuqori bo‘lib, oliy hukmdor ularga suyangan holda ichki va tashqi siyosat yuritgan. Harbiylarni rag‘batlantirish va moddiy ta‘minlashda har-xil sovg‘a-salomlar, to‘nlar, qilich, pichoq, Xiva atrofidan ma’lum miqdorda er-suv ajratib berilgan. Ogahiy harbiylarni rag‘batlantirilgani, ularni moddiy tarafdan davlat tomonidan doim

qo'llab-quvvatlab turilganligi haqida shunday yozadi, "Mirmuhammadxon jamshidiy boshlig" borchasi sarkardalarg'a oltun raxtlig tavsanu to'pchoq va kimxo xil'at va tamomi zar futa va tillo dastalig pichoq in'om qilib, har birig'a xurshidi ofoq yonglig mumtozlig, sarafrozlig'lar etkurdilar. Sanodidi lashkariyadin dog'i yuz kishiga xanjari murassa bila libosi mulamma inoyat qilib, yana ming kishiga sarupoyi zardor baxshishidan bahrabardorlig bag'ishladilar. Va bosh kesib kelturgon muborizlarig'a har bosh uchun panjai ehsonidin o'n tillo in'om qilib, shodikim etdilar va yaro ko'torgon bahodirlarg'a bog'i bu tariqada atovu karam bila barumandlig etkurub, o'zga askariyani dog'i iltifoti podshohona va inoyoti xisravonadin bahramand va arjumand qildilar..."[27].

Jang vaqtida yarador bo'lган harbiylar 5-10 tilla miqdorda pul yoki boshqa narsa bilan ta'min etilgan. Buni Bayoniying quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "... yamut bahodirlorig'a sarpoj va in'omlor berdilar. Niyoz bahodirkim Chorjuy urushida kub maydondorliq etib, og'ir zaxm kutorib erdi, onga ziyodati in'omlor etdilar...". Harbiy harbiy yurishdan qaytib kelgan sarkadalarga turli xil sarpo yoki oltin kamar berilganligini "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida ko'rish mumkin. Unda "Salq Qurban Qilichxon Xurosondin kelib mulozamatg'a etdi. Ul hazrat onga mehribonliq kurguzub sarpoj berdilar va oltun kamar berib sarafroz etdilar..." - deb qayd etiladi.

Harbiy yurishlardan qaytgan navkarlarga 5 tilladan "navkar puli" berilgan. Harbiy mansabi yuqoriyoqlar 50-100 tilladan yoki bundan ham ko'proq pul olgan. Bundan tashqari "ot puli", "qunuq puli", "ozuqa puli" ham berib borilgan. Har bir navkar yurishda qo'lga tushirgan o'ljasining 1/5 qismini "g'on" sifatida xonga berishi lozim bo'lgan.

Navkarlarga xizmati evaziga bulardan tashqari, 5-10 tanobdan, ayrim hollarda jangda ko'rsatgan jasorati, iqtidoriga qarab bundan ham ko'proq er-suv berilgan. Xususan, 1852 yilda mehtar tomonidan go'klan navkarlariga 50 tanobdan er o'lchab berilgan. Xonlikdagi harbiylar va diniy ulamolar soliqlardan ozod etilgan.

Navkarlarga qurollar bilan birgalikda, otlar ham berilgan bo'lib, qo'shinga olingan otlarga tamg'a bosib qo'yilgan.

Xon qarorgohi bo'lgan "Ichan-qal'a" o'ziga xos mudofaa vazifasini o'tagan. Olloqulixon davriga kelib, 1842 yilda "Dishan qal'a" ya'ni "tashqi qal'a" devorlari quriladi. Bu qal'a devorlarining ustiga maxsus kichik ravoq va teshiklar ishlangan bo'lib, bu erdan jangchilar o'q-yoy, nayza yoki miltiqdan otishda foydalanganlar. Shu bilan birga teshiklar kuzatuv vazifasini ham o'tagan.

XVI-XIX asrlarda Xiva qo'shinidagi harbiylar o'q o'tmaydigan Sovut, ya'ni javshan kiygan va qalqon bilan himoyalanganlar. Buni ular kiyimlari ustidan kiyganlar. Xivalik harbiylar odatda o'zlariga tegishli kiyimlariga qilich va pichoq taqib yurganlar.

Shu o'rinda xonlikdagi harbiylar soni masalasi ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Harbiy jang olib borishda qo'shin miqdori ham asosiy o'rin egallagan. Qo'shin soni turli vaqtarda o'zgarib turgan. Bu asosan hukmdorning shaxsiy sifat va xislatlariga ham bog'liq bo'lgan.

XVI-XIX asrlarda Xiva qo'shini soni o'zgarib turgan. Odatda bu narsa harbiy harakatlarni muhimligi va ko'lamiga ham bog'liq bo'lgan. Katta yurishlarda qo'shin soni ancha ortgan. Qo'shin soni haqida XIX asr boshida Xivada bulgan N.N.Muravev bu erdag'i qo'shin sonini 12 000 navkardan iborat deydi. 1813 yilda Muhammad Rahimxon I tomonidan Eronga qilingan yurishda 12 000 kishi ishtirok etgan.

1829 yilga kelib qo'shin soni 40 000 kishiga etkazgani kuzatish mumkin. Buni shu yili Olloqulixon (1825-1842) tomonidan Eronga qilingan yurish tasdiqlaydi. Unda 40 000 harbiy qatnashgan bo'lib, yo'lda vabo kasalligining tarqalishi sabab bu yurish amalga oshmaydi. Qo'shin orqaga qaytishga majbur bo'ladi.

1855 yil Muhammad Aminxon tomonidan Saraxsga uyushtirilgan yurishda ham 40 000 kishi ishtirok etgan bo'lib, xonga ko'mak berish uchun jamshid, qorayob, tiyman, Maymana va Shibirg'ondan solur, soruq, takas, go'klan, yovmut va boshqa turkman urug' hamda aymoqlaridan navkarlar keladi. Rus manbalari ma'lumotiga ko'ra, 1855 yilda Xiva otliq navkarlari 25 000 dan 35 000 gacha bo'lgan.

Xiva xonligi Rossiya protektoratiga o'tganidan so'ng xonlik qo'shini soni kamayib ketganini kuzatish mumkin. Xonlikda 1500-2000 atrofida qo'shin saqlashga ruxsat oladi. Bular asosan tinchlikni saqlab turish, turli xil soliqlarni yig'ish, saroyni qo'riqlash ishlarini bajargan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Xiva xonligi tarixiga oid yozma manbalarda davlatning ushbu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar bilan bir qatorda xonlikdagi harbiy ish, mansab va unvonlar, qurol-yarog'lar, qo'shin tarkibi, harbiy taktika, qo'shin ta'minoti va hokazolar

haqida boshqa manbalarda uchramaydigan muhim ma'lumotlar keltirilib o'tiladi. Garchi o'lka Rossiya protektorati o'rnatilgan bo'sada, harbiy soha ham rivojlantirilib borildi.

Foydalaniman adabiyotlar

Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк / Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Қ.Маҳмудов. Тошкент, 1992.

Бланкеннагель. Замечания майор Бланкеннагеля. Впоследствие поездки из Оренбурга в Хиву в 1793-94 годах. СПб.,

Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. Ўзбекистон Фанлар академияси Шарқшунослик институти (кейин – ЎзФА ШИ). № 9596. 333-в.

Ўзбекистон Миллий архиви (кейин – ЎзМА). И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 557-йиғмажилд.

Сайд Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин / Масъул муҳаррир А.С.Сагдуллаев. Тошкент, "Академия", 2002. – Б.64.

Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 2003. – С.249.

Иванин М.И. Хива и река Аму-Дарья. СПб., 1873. – С.60.

Институт Востоковедение Российской Академии наук. Ф-33 (А.Кун), описание-1, дело-13. 41 об, 42-л.

Путешествие по Средней Азии венгерского ориенталиста Арминия Вамбери (1863) // История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20-80-е годы XIX в.) / Сост.: Лунин Б.В. Т., 1990. – С.148.

Bregel Y. Firdaws al-iqbali. History of Khorezm. By Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Mirab Agahiy / Translated from Chaghatai and Annotated by Yuri Bregel. Brill. Leiden-Boston-Koln, 1999. – P.762.

Абдурасулов А. Хива (тариҳий-этнографик очерклар). Т., 1997.

Йўлдошев М.Й. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Т., 1959. – Б. 355.

ЎзМА. И-125 жамғарма, 1-рўйхат, 575-йиғмажилд. 1, 3, 3 орқа варак; И-125 жамғарма, 2-рўйхат, 537-йиғмажилд. 35 орқа, 38 орқа, 41-вараклар.

ЎзМА. И-125 жамғарма, 1-рўйхат, 521-йиғмажилд. 26 орқа, 79 орқа вараклар.

Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Оғаҳий. Жоме ал-воқеоти султоний. Асарлар. VI-жилд. Т., 1980. – Б.54.

Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий / Сўз боши: Н.Жумахўжа, И.Адизова. Т., 1994. – Б.26; Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Оғаҳий. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси) / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов. Т., 2009. – Б.63.

Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Оғаҳий. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси) / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов. Т., 2009. – Б.216;

Muhammad Rizā Mīrāb Āgahī. Jāmi‘ al-vāqi‘āt-i sultānī // Edited in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Nouryaghdi Tashev. Samarkand-Tashkent: IICAS, 2012. – P.222.

Карпов Г.И., Батцер Д.М. Хивинские туркмены и конец Кунградской династии (Материалы по истории туркмен). Ашхабад, 1930. – С.22.

Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. Ч.2. М., 1822. – С.65.

Военные действия на Оксусе и падение Хивы. Соч. Мак-Гахана. Перевод с английского (с рисунками). М., 1875. – С.181.

Firdaws al-iqbali: history of Khorezm / by Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Mirab Agahiy; translated from Chaghatai and annotated by Yuri Bragel. Leiden; Boston; Keln; Brill, 1999. – P.585-586.

Туркестанский сборник. Том 75. – С.112f.

Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследования и описание документов с историческим введением / Предисловие акад. Крачковского И.Ю. Л., 1940. – С.76, 172, 178.

Туркестанский сборник. Том 72. – С.5.

Веселовского Н. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. От древнейших времен до настоящего. М., 1877. – С.207.

Оғаҳий. Жоме ал-воқеоти султоний. Асарлар. VI-жилд. Т., 1980. – Б.16.